



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

KO‘KALAMZOR HUDUDLARNING SHAHAR HAYOTIDAGI O‘RNI

Sobirov Azamat Sadullayevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”

kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Bu maqolada shahar magistral yo‘llari atrofida joylashgan turar-joylarda yashayotgan aholini avtotransport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar, shuningdek shovqin va changlardan himoya qilish choralari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Аннотация

В этой статье рассматриваются вопросы о защите населения которое живёт вдоль магистральных улиц города, от токсичных газов, пыли и шума который создаваемого при движении автотранспорта.

Annotation

This article discusses the issues of protecting the population who lives along the main streets of the city from toxic gases, dust and noise that come from the movement of vehicles.

Kalit so‘zlar

diskomfort, ekologiya, detsiball, vibratsiya, ob’ekt, magistral, kompozitsiya, yarus.

Ключевые слова

дискомфорт, экология, децибалл, вибрация, объект, магистрал, композиция, ярус.

Key words

discomfort, ecology, decibel, vibration, object, highway, composition, tier.

Kirish

Yashil o‘simliklarning shaharsozlikdagi ahamiyati katta va ko‘p qirralidir. Ular sanitariya-gigienik sharoitni yaxshilash xususiyatiga ega bo‘lganlari sababli inson yashaydigan atrof-muhitni shakllantirishda katta rol o‘ynaydilar. Yashil o‘simliklar shamol kuchini kamaytiradilar, issiqlik rejimini muvofiqlashtiradilar, havoni

tozalaydi va namlaydi – bu omillarning barchasi sog‘lomlashtirish nuqtai nazarida katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism


Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, inson erkin nafas olishi, kayfiyati yaxshi bo‘lishi, umuman olganda normal hayot kechirishi uchun 60 kv.m yashillik kerak. Bu faqatgina daraxtlar emas, balki butalar, maysazor bo‘lishi mumkin. Nima uchun butalar? Chunki katta yo‘lning chetiga ekilgan butalar avtomobillar shovqinini kamaytiradi, avtomobillardan chiqadigan is gazi va boshqa zararli moddalarni o‘zida ushlab qoladi.

Hozirgi vaqtga kelib avtotransport vositalari sonining intensiv o‘sishi va ular harakati tezligining oshishi shaharlarda tevarak atrofning zaharli gaz, chang va shovqindan ifloslanish darajasi va ta’sirining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, shahar katta ko‘chalari ta’siri ostidagi qismlarda aholi yashashi sanitariya-gigiena sharoitining yomonlashuvi yuz bermoqda. YA’ni, aholi uchun diskomfortlilik holati kelib chiqmoqda. Shaharlarni zaharli gaz, chang va shovqindan ifloslanishi masalasiga hozirgi kunning dolzarb ekologik muammolaridan biri sifatida qaralmog‘i lozim.

Shaharlarda sanoat korxonalari va avtotransport vositalari faoliyati natijasida vujudga keladigan zaharli gaz, chang va shovqin insonlar salomatligiga katta zarar etkazadi. Shaharlardagi zaharli gaz, chang va shovqin kommunal-kundalik va ishlab chiqarish vositalaridan, shuningdek avtotransport vositalari harakatlanishidan kelib chiqadi. Shaharlardagi bu zaharli gaz, chang va shovqinlar ta’siri yil sayin kuchayib bormoqda. Uzoq davom qiluvchi baland shovqinlar insonlar asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni injiq va asabiy qilib qo‘yadi. Bu shovqinlar ta’sirida odamning nafas olishi va yurak urishi tezlashadi, qon bosimi oshadi. Shaharlardagi bu shovqinlar insonning umrini bir necha yilga qisqartirishi mumkin. Sanitariya talablariga ko‘ra, yo‘l qo‘yiladigan shovqin yig‘indisi 40 detsiballga teng. Olimlarning fikriga ko‘ra so‘nggi 30-40 yillar ichida shahar shovqini sanitariya me’yoridan 4-5 baravarga oshib ketgan.

SHaharlar hududidagi zaharli gaz, chang va shovqindan ifloslanish va tebranish(vibratsiya)larga qarshi kurashishning eng samarali yo'llaridan biri bu hududni ko'kalamzorlashtirishdir.

Afsuski ba'zi shaharlarda o'rta va ko'p qavatli turar joy binolari avtotransport vositalari harakatlanadigan yo'llarga juda yaqin qurilmoqda. Quyidagi rasmlarda bunga guvoh bo'lishingiz mumkin.



Ko'kalamzor hudud uchun joy qoldirilmagan. Turar joy binolari avtotransportlar harakati natijasida hosil bo'ladigan zaharli gaz, chang va shovqindan himoyalangan. Ko'kalamzorlashtirilishi kerak bo'lgan hududlar beton bilan qoplab tashlangan. Bunday binolarni barpo qilayotgan tashkilotlar faqat binoni qurish bilan cheklanmasdan uni atrofini ko'kalamzorlashtirish to'g'risida ham o'ylashlari lozim.

Turar joy binolarini zaharli gaz, chang va shovqinlardan himoya qilish uchun yo'ning avtomobillar harakatlanadigan qismi bilan binolar o'rtasida qalin daraxtzor barpo qilish kerak. Bu daraxtzorlarning kengligi 10-15 metrdan kam bo'lmasligi, va unda bir nechta qalin baland o'suvchi daraxt qatorlari joylashishi kerak. Bunda himoya qilinadigan ob'ektga nisbatan daraxt qatorlari to'g'ri joylashtirilishi lozim.


SHaharning ifloslanishiga qarshi samarali kurashishda qalin, vertikal holatda o'tkazilgan, birlashgan daraxt qatorlari yordam beradi. SHaharsozlik bo'yicha mutaxassislarning fikriga ko'ra shahar aholi yashash qismi bilan temir yo'l va avtotransport magistrallari oraligida barpo etilgan serbarg daraxtzorlar shovqinning 25 foyizini yutib, 75 foyizini qaytarar ekan. Bu daraxt qatorlari shovqindan himoya qilish bilan birga avtotransport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlardan va asfaltdan ko'tarilayotgan changlardan ham himoya qiladi.

Bu daraxtzorlarni barpo qilishda qalin bargli va uzoq vaqt bargini to'kmaydigan daraxtlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bularni shovqin manbaalariga yaqin ekib, daraxtlar, butalar va yashil devorlardan yarusli kompozitsiya hosil qilish mumkin. Ko'p yarusli daraxt qatorlar shovqinni 10 detsiballga kamaytirar ekan. Ushbu himoya hududiga zaharli gaz, chang va shovqinni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan daraxtlarni tanlab olib ekish lozim.

Hozirgi kunda archasimonlar oilasiga mansub bo'lgan daraxtlar ko'p ekilyapti. Ammo issiq ivlimli mamlakat bo'lganimiz sababli sathi keng bargli daraxtlar ko'proq bo'lishi kerak. U yoki bu turdagi daraxt va butalarning changdan himoyalash xususiyatini o'rganib, ularni to'g'ri tanlab joylashtirilsa, yuqori himoya samarasiga erishish mumkin.


Yirik shox-shabbali, tuklangan, ajinsimon, g'adir-budir, notekis bargli daraxt turlari (eman, qayrag'och, tut, qora yong'oq, oq terak, chinor, mayda bargli jiyyda, zirk, katalpa va boshqalar.) havodagi changni yaxshi ushlaydi. Baland o'suvchi safora, eman, aylant, qayrag'och, shumtol daraxtlari katta barg sathiga ega bo'lganligi uchun ulardan tuzilgan yashil massivlar avtotransport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar va changlardan yaxshi himoya qiladi.

O'simlik chiziqlarining gazdan himoyalovchi ta'siri:




1-gaz bilan to'yinganlik darajasining ko'kalamzorlashtirilmagan hududda pasayishi, 2-xuddi o'sha ko'kalamzor ta'sirida

O'simliklarning shovqindan himoya qilish xususiyatlari:




1-amaldagi sanitar me'yor, 2-ochiq hududda shovqin darajasining pasayishi, 3-xuddi o'sha o'simliklar chizig'i bilan, 4-noqulay shovqin hududi, 5-o'simliklar chizig'i ortidagi noqulay shovqin hududi

Ko'kalamzorlashtirish vositalarini shovqindan himoyalovchi sifatida qo'llash:



1-1,5m.o‘lchamli tepalikdagi o‘simliklar,2-1,8-2m.balandlikdagi beton devor bilan qo‘llanilgan o‘simliklar chizig‘i.



Daraxtlarning changni ushlab qolish ko'rsatkichlari,kg.

Xulosa

Shaharlar hududidagi zaharli gaz,chang va shovqindan ifloslanish va tebranish(vibratsiya)larga qarshi kurashishda,daraxt turlarini tanlashga ilmiy tomondan yondoshmoq zarur.Ko'p yarusli daraxt qatorlarini hosil qilishda: lipa, eman, safora, shumtol, klen ostroлистный, berlin teragi, qayrag'och, dub kabi daraxtlar, kalina, leщина, siren kabi butalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D.U.Isamuhammedova,M.K.Axmedov,M.A.Talipov,K.D.Sattarova.
2. "SHaharsozlik va landshaft arxitekturası" I Qism.Toshkent 2019y.
3. Z.N.Xayrutdinov."Teoriya landshaftnoy arxitektury i metodologiya proektirovaniya".2-e izdanie.Moskva 2019 g.
4. "YAshil makon"umummilliy loyihasi doirasida respublika hududlarida daraxt-buta ko'chatlarini ekish bo'yicha tavsiyalar.Toshkent 2022 y.

Avtorlar: Ibadullaev Ibraxim-UrDU,texnika fakulteti,"Arxitektura" kafedrası o'qituvchisi.tel.999412681

Polvonov Baxrom- UrDU,texnika fakulteti,"Arxitektura" kafedrası o'qituvchisi.tel.977046636